

Respublikamiz OTM talabalarining ijtimoiy holati:

Halok bo'lgan harbiylar farzandi: **75 nafar**

Ota-ona qaramog'idan mahrum: **324 nafar**

I va II guruh nogironi: **1167 nafar**

To'liq davlat qaramog'ida: **137 nafar**

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 59 (16512)  
2022-yil, 27-avgust  
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

**Yoshlar yetakchisi**  
4-bet

Yetakchilarning top-100  
talik ro'yxatiga kirdim

**Sening tengdoshing**  
6-bet

"Yuksalish"da  
yuksalgan ixtirochi

**Blogerlar fikri**  
7-bet

"Jadidlar"  
haqida



# KIMAYBDOR?

► **550 MING  
ABITURIYENT  
56,7 BALL HAM TO'PLAY  
OLMAGAN**

batafsil  
3-betda

# EKO-VOLONTYORLAR TAJRIBA ALMASHMOQDA



**Ro'za ARTIKBOYEVA,**  
O'zbekiston Yoshlari  
Umumjahon assot-  
siatsiyasining xorijda  
ta'lim olayotgan yosh-  
lar bilan ishlash bo'limi  
mutaxassisi

Joriy yil 24–31-avgust  
kunlari Yoshlar ishlari  
agentligi, O'zbekiston vo-  
lontyorlar assotsiatsiyasi  
hamda Turkiya hamkor-  
lik va muvofiqlashtirish  
agentligi hamkorligida  
"Tajriba almashinuv das-  
turi" o'tkazilmoqda.

"Orol dengizi atrofida yuzaga kelgan ekologik vaziyat va ekologik ogohlilikni oshirish" dasturi doirasida Yoshlar ishlari agentligining bu sohada amalga oshirgan ishlari hamda O'zbekiston tomonidan Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar haqida ma'lumot berish ko'zda tutilgan.

Yoshlar ishlari agentligida o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvda turkiyalik talaba-yoshlar, eko-volontyorlar, TIKAning Toshkentdagi vakolatxonasi vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvda mahalliy talabalar, volontyorlar Yoshlar ishlari agentligi va Volontyorlar assotsiatsiyasining faoliyati, o'tkazilayotgan qator eko-loyihalarni haqida taqdimot qilindi.

Dasturning ikkinchi kuni volontyorlar Toshkent viloyati Parkent tumanida joylashgan "Sakson ota" o'rmon xo'jaligida tashkil etilayotgan ekotrial yo'lakchani ta'mirlash



ishlarida qatnashdi. O'rmon xo'jaligi uchun yangi ko'chatlar keltirildi, daraxtlar tagi yumshatilib, ariqlar ochildi va tozalandi. O'rmon xo'jaligi faoliyati, yaqin kelajakdagi rejalar haqida ma'lumot berildi.

Bu uchrashuvlar natijasida har ikki mamlakat vakillari o'zaro tajriba va bilim almashdi. Eng muhimi,


iqlim o'zgarishi, global isish va Orol bo'yi mintaqalarini asrab-avaylashga doir yoshlarning fikrlari, takliflari muhokama qilinmoqda.

Loyihaning keyingi manzillari Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari bo'lib, turkiyalik talabalar u yerdagi ekologik holat va bugungi loyihalarni yaqindan tanishadi.

O'quv-seminar

## YOSH TARIXCHILAR O'QUVI

Bostonliq tumanidagi "Yoshlar" oromghida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tashkil etilgan "O'zbekiston yosh tarixchilarining birinchi yozgi o'qishlari" o'quv-seminari bo'lib o'tdi. O'n kunlik seminarda oliy o'quv yurtlari va xalq ta'limi muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat yuritayotgan 100 nafarga yaqin yosh tarixchilar qatnashdi.



Tadbirdan ko'zlangan bosh maqsad – yangi avlod tarixchilarini shakllantirish, tarixga xolisona yondashgan holda uni yoritish, manbalarni tarjima qilib, ilmiy muomalaga kiritish, xatolarga yo'l qo'ymaslik va, eng asosiysi, buyuk tarbiyachi – tarixdan to'g'ri foydalangan holda yosh avlodga haqqoniy tarixni yetkazishdir.

Yosh tarixchilarga respublikaning yetuk tarixchi olimlari va xorijlik mutaxassislar mahorat darslarini o'tadi. Xususan, professor tarixchi olimlar "Tosh davri yangiliklari" mavzusida qadimgi davrga oid yangi ma'lumotlar haqida, "Harb san'ati tarixi" mavzusida tariximizdagi harbiy islohotlar, jang uslubi va qo'shin turlari bo'yicha, "IX–XIII asrlar arab yozma manbalari" mavzusida tarixiy manbalar, ularni yoritish, ilk renessans davrida ijod qilgan mutafakkirlarimiz to'g'risida, "Turkistonda jadidchilik harakatining tug'ilishi, yo'q qilinishi va ahamiyati" mavzusida, "O'zbek xalqining sovet imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakati (1918–1935)", "Sovet hokimiyatining qatag'on siyosati arxiv hujjatlarida" mavzularida fan darsliklariga hali kiritilmagan yangi tarixiy-siyosiy jarayonlar, ularning manbalarida va arxiv hujjatlarida yoritilishiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lsa, Tarix institutining Tarixshunoslik va manbashunoslik markazi boshlig'i Nigora Allayeva har bir davr tarixini o'rganish va ularni yoritishda tadqiqot nazariyalari, metodologik jihatlarga yondashgan holatda tahlil qilishga oid fikrlarini bildirdi.

Oromghoda davra suhbatlari, "Zakovat" intellektual o'yni va boshqa ma'rifiy, ko'ngilochar, sport tadbirlari ham tashkil etildi.

Zavqibek MAHMUDOV,

O'zRFA Tarix instituti kichik ilmiy odimi, Yuqorichirchiq tumanidagi 34-maktabning tarix fani o'qituvchisi

## YOSH OILALAR UCHUN IMKONIYATLAR

177  
IMKONIYAT



Prezidentimizning 2021-yil 13-iyulda-gi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, yosh oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga doir kafolatlar belgilangan.

Jumladan, ipoteka dasturi doirasida boshlang'ich badal va foiz to'lovlari bo'yicha qo'shimcha 2 mingta yosh oilaga uy-joy sotib olishi uchun subsidiya ajratilishi nazarda tutilgan.



### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Yosh oila toifasiga mansubligini tasdiqlash uchun er-xotinning shaxsiga doir hujjatlar va nikoh guvoohnomasi nusxasini taqdim etish lozim bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, imtiyozdan foydalaniish to'g'risida ariza berilgan paytda er-xotinning ikkisi ham 30 yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab yoyaga yetkazayotgan 30 yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan, nikohdan ajralgan, beva erkak yoki ayol – "Yosh oila" sifatida e'tirof etiladi.

Murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

## 550 MING ABITURIYENT 56,7 BALL HAM TO'PLAY OLMAGAN

So'nggi kunlarda eng ko'p muhokamaga sabab bo'lgan mavzu 51 foiz abituriyent o'tish balini yig'a olmagan bo'ldi.

Davlat test markazi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yilda 1 million 73 ming 821 nafar abituriyent testga kirgan. Ularning 550 ming nafari (51,2%) o'tish balining eng quyi chegarasi bo'lgan 56,7 ballni ham to'play olmagan.

O'tgan yili bunday salbiy ko'rsatkich 36 foiz edi. Bu yil esa jami abituriyentlarning yarmidan ko'pi! Foizlar o'sishiga abituriyentlar soni o'tgan yilgidan 180 mingga ko'pligi, majburiy blokdagi oson savollarga beriladigan ball kamaytirilib, mutaxassislik faniga ko'proq ball berilgani ham sabab bo'lgan.

### 56,7 BALL TO'PLASH SHUNCHALIK QIYINMI?

Huquqshunos Xushnudbek Xudoyberdiyevning fikricha, 56,7 ball to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori – 189 ballning 30 foizi degani. Ya'ni abituriyent hech bo'lmasa 30 foiz bilimga ega bo'lsa, bu ballni yig'a oladi. 30 foizlik bilim esa reyting tizimidan qiyos olsak, "2" baho ham emas! "1" baho desak to'g'ri bo'lar, balki. Ya'ni 2 bahoga o'qiganlar ham taxminan 35-55 foiz natija ko'rsata olishi kerak. Tasavvur qilyapsizmi, yaqin yillarda maktablarni tugatgan yoshlarning 36 foizi, aniqrog'i 319 ming nafari fanlarni "2" bahoga ham bilmaydi.

Yetarli ballni olish uchun majburiy blokdagi 10 ta savoldan 5 tasiga, mutaxassislik blogidagi 30 ta savoldan 8 tasiga to'g'ri javob berish kifoya edi. Shunda 58,1 ball to'planardi. Nahotki 550 ming abituriyent shuni ham eplay olmagan?

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, abituriyentlarning umumiy bilim darajasi ancha past. Sizningcha, nega bilim darajamiz xavotirli darajaga kelib qoldi? O'quvchilarning katta qismi eng elementar va sodda bilimlarni ham bilmasligiga sabab nima?

### VAZIRLIKMI, O'QITUVCHIMI, O'TA-ONAMI YOKI...

Biror muammoning yechimidan ko'ra aybdorini topish osonroq. Bu xabar tarqalgach atrofimizda "aybdorlar" ko'payib ketdi. Kimdir korruptsiya sabab ballar doim oshirib ko'rsatilgan, tizim shaffoflangan ya'ni asl ahvolimiz ko'rinyapti desa, boshqasi yoshlarning ko'p qismi vaqtini behuda narsalarga sovrayotganini aytadi. Hukumatni, tizimni, maktab direktorlarini, o'qituvchilarni, ota-onalarni, xullas, hamma bir-birini qoralash bilan band. Aslida ayb kimda o'zi?

Ta'lim sifatidan ko'ra o'quvchilar davomati, formasi yoki uning soch-soqoli-yu ro'moli, qog'ozbozlikka ko'proq vaqt va kuch sarflayotgan va-zirlikdami ayb? Yoki maoshi kamligini ro'kach qilib, ishiga yuzaki yondashayotgan o'qituvchidami? Bola tarbiyalash deganda faqat ularni yaxshi yedirish, kiyintirishni tushunadigan, erta-yu kech tirikchilik daradida yurib, bolasiga vaqt ajrata olmaydigan ota-onalardami? Balki, ayb o'qishga kira olmagani o'zidan boshqa hammani gunohkor qilayotgan abituriyentning o'zidadir?

### HAMMASI YAXSHI, LEKIN...

Gap milliy ta'lim tizimimiz haqida ketar ekan, hozir tariqa aylangan bir gap yodga tushadi: O'zbekiston ta'lim tizimida ikki narsa yo'q, biri ta'lim, ikkinchisi esa tizim. Xo'sh, bu gap haqiqatmi, ahvol shu darajaga yetishi ta'lim tizimiga bog'liqmi? **Xalq ta'lim vazirligining rasmiy munosabatiga quloq tutsak:**

# BUNGA KIM AYB-DOR?

Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"Muhokama qilinayotgan ko'rsatkichlar barcha test sinovlarida qatnashgan 1 million nafardan ortiq abituriyentlarning natijalari ekaniga ham e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz. 2022-yilgi test sinovlarida ishtirok etgan jami abituriyentlarning 386 523 nafari yoki 24 foizi joriy yilgi maktab bitiruvchilarini tashkil etadi. 810 ming nafardan ortig'i yoki 76 foiz abituriyentlar kasb-hunar maktablari, akademik litseylar bitiruvchilari va eng asosiy qismi, oldingi yillar davomida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinmagan yoshlardan iborat. 2021-yilda bitiruvchilarning o'rtaacha balli (samardorlik ko'rsatkichi) 2020-yilga nisbatan 69,8 balidan 74,9 balga, ya'ni 5,1 balga oshgan. Shuningdek, past natija ko'rsatgan (56,7 balidan kam) bitiruvchilarning ulushi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan qariyb 13 foiz yoki 35 232 nafarga kamaygan.

Jumladan, 2020-yilda 56,7 balidan past natija ko'rsatgan bitiruvchi-o'quvchilar 138 780 nafar (yoki 46 foiz)ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 103 548 nafar (yoki 33 foiz)ni tashkil etgan. Albatta, hozirgi kundagi maktab bitiruvchilarning bilimi va ko'nikmalari past ekanligini qayd etish kerak. Maktab ta'limida ta'lim mazmunini yangilash hamda pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha boshlangan qadamlar, sekin-astalik bilan bitiruvchilarning darajasiga joiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz".

### "KRESLO" SINI BERGISI KELMAYDI

Reytingda o'tish balini ham yig'a olmagan abituriyentlarning eng ko'p qismi Toshkent viloyatiga to'g'ri kelgan. **Toshkent viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Azamat Kamolov** holatdan juda tashvishda ekanini aytdi.

**Azamat Kamolovning aytishicha,** Davlat test markazining ballar bo'yicha dastlabki natijalariga ko'ra, viloyatdagi umumiy abituriyentlar soniga nisbatan 55,9 foiz abituriyent 51,2 ball ham olmagan. 101 ming 239 nafar abituriyentning 23 ming yoki 24 mingi joriy yilda maktablarni tamomlagan abituriyentlar. Mayli, qolganlari uch yil oldin, besh yil oldin, boringki, 10 yil oldin bitirgan bo'lishi mumkin, lekin ular ham Toshkent viloyati maktablarini bitirgan. Shu o'quvchilarga dars bergan o'qituvchilarimiz haliy ham maktabda dars beryapti, direktorlar ishlayapti. 10-15, 20-25 yil ishlagan direktorlar ishining, ko'rsatkichining tayini yo'q, lekin "ko'p yillik direktorman", deb ko'ragini kerib, joyini bo'shatgisi kelmaydi. Bugungi natijalar hammamizning faoliyatimizga berilgan yaqqol baholar.

### HAMMA O'ZICHA HAQ


Holat yuzasidan o'qituvchilar fikrini tinglaganimizda aksariyati o'quvchilarning o'qishga ishtiyoqi yo'qligi, ota-onasining ularga be'tiborligi haqida arzi hol qilmoqda.

Darhaqiqat, bolani o'qitishda ustozlar sal qattiqqo'llik qilisha, yugurib borib ustozlarga do'q-po'pisa qiladigan, farzandining dars qilish-qilmasligini ikkinchi darajaga qo'ygan ota-onalar ham talaygina. Yana bir toifa borki, ular hatto farzandining nechanchi sinfdan o'qishini bilmaydi, maktabdagi majlislariga borish tugul, farzandining sinf rahbarini tanimaydi. Bunday oilalar farzandlarining yarmi chetga ishlash uchun ketadi, qizlari esa turmushga chiqadi.

O'ziga to'roq oila farzandlari davlat oliy o'quv yurtlariga kira olmasa, pul ko'tarib chet eldagi bilim yurtlariga kirgizib, "perevod" dan najot kutadi. Yoki qo'shimcha pul to'lab, "super" kontraktga ilashtiradi. Endi aytimg-chi, "super" kontrakt va "perevod" ni ko'rib turgan o'quvchining jon achitib o'qigisi keladimi?


Maktablar kamligi bois bir sinfdan 35-40 bolani o'qitishga, ikki smenada dars berishga majbur bo'layotgan, ota-onasi telefoniga mukasidan ketgan bolalarni kitobga qiziqtirishga harakat qilayotgan o'qituvchilar ham bu "bilimsizlik olovida" barobar yonyapti.

Ko'rib turganingizdek, mutasaddilar ta'lim tizimini yaxshilayotganini aytadi, o'qituvchi ota-onaning, ota-ona ustozlarning yoqasiga yopishgan. Shunday ekan, aybdor kim? Balki, siz bilarsiz?



# YETAKCHILARNING TOP-100 TALIK RO'YXATIGA KIRDIM

**Akbar XIDIROV,**  
Ishtixon tumani G'afur  
G'ulom nomidagi mahalla  
yoshlar yetakchisi



Hozir



Avval



**V**azifam sabab mahallamizdagi har bir yoshning dard-u tashvishi bilan yashashga odatlandim. Yetakchi nafaqat yoshlarning muammolariga e'tibor qaratishi, balki har bir xonadonda yuzaga kelayotgan masalalarga daxldorlik hissi bilan faoliyat olib borishi kerak. Yaqinda ana shunday oilaning muammosini bartaraf etdik.

Oilaning ikki nafar a'zosi "Temir daftar" da ro'yxatda tursa-da, oila boshlig'i nogiron bo'lgani uchun zo'rg'a kun ko'rishardi. Yashash xonadoni ham qulab tushish arafasida edi. Muammoni hal etish maqsadida mahalla raisi bilan maslahatlashib, sektor rahbariga taklif bilan chiqdim. Fuqaroning yashash xonadonini ta'mirlash uchun homiylarni to'pladim, ustalarni ham hashar yo'li bilan xolis yordam qilishga ko'ndirdim. Natijada oila o'zlari orzu qilgan-

dek xonadonning egasi bo'ldi. Bu mening ilk tashabbusim edi. Hozir shu xonadon oldidan o'tsam, ichimda qandaydir faxr uyg'onadi.

Bizga yuklatilgan yana bir vazifa, bu yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, buning uchun ularga imkoniyatlar yaratib berishdir. Bunda "Besh tashabbus olimpiadasi" juda katta ko'makchi bo'ldi. Mahallamiz yoshlari olimpiadaning har bir turida faol qatnashib, o'z iqtidorini ko'rsatdi. Ayniqsa, sportning "Stritbol" turi bo'yicha katta tayyorgarlik ko'rgan yoshlarimiz Termiz shahrida bo'lib o'tgan respublika bosqichida ham g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Bu g'alaba mahallamiz tarixidagi eng katta yutuq bo'ldi. Orzu qilganimdek, mahallamiz yoshlari respublikada eng kuchli jamoaga aylandi. Natijada va'da qilinganidek, mahallamizda yoshlar uchun yangi sport maydonchasini qurish ishlari boshlandi.

Zakovatchi yoshlarimiz ham viloyatda tengsiz ekanini ko'rsatdi. Bilimdonlarimiz Ishtixon tumanidagi "Yoshlar festivali" doirasida 62 ta mahalla o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual turnirida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Mahallamdagi imkoniyati cheklangan yoshlarni ham e'tibordan chetga qoldirmayman. Shu kunlar-



"Yoshlar daftaridan"

## 15 SOTIXDAN 60 MILLION SO'M DAROMAD

Farg'ona tumani Vodil qishlog'i mirishkorlari shifobaxsh rezavor - malina yetishtirishni o'tgan asrning 60-yillaridayoq o'zlashtirgan. Yillar davomida katta tajriba to'plagan vodilliklar ayni paytda o'z mahsulotlarini uzoq-yaqin davlatlarga ham eksport qilmoqda.

Jumladan, Vodil Qizilqo'rg'on massivi hududida joylashgan 350 gektar bog'ning qator oralariga malina ko'chatlari ekish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunga qadar 222 gektar bog' qator oralariga malina ko'chatlari ekildi.

Bundan tashqari, 20 gektar yer maydoni malinachilikni rivojlantirish maqsadida "Obod" mahallasidan "Yoshlar daftariga" kiritilgan 15 nafar ishsiz hamda xorijdan qaytgan fuqarolarga 10-15 sotixdan ochiq auksion savdolari orqali ajratib berildi. Ajratilgan 225 sotix yer maydonlarida beton ustunlar o'rnatilib, malina ko'chatlari parvarishlanmoqda. Qator oralariga kartoshka va boshqa sabzavot ekinlari ham ekildi.

**Islomjon MUHAMMADJONOV,**  
Farg'ona tumani "Obod" mahallasi yoshlar yetakchisi



- Mening asosiy daromadim malinadan, - deydi "Yoshlar daftariga" kiritilib, 15 sotix yerda dehqonchilik qilayotgan yoshlardan biri **Ibrohim Dostonov**. - Kelajakda malina yetishtirishni katta plantatsiya darajasiga olib chiqish niyatim bor. Birinchi hosil terildi, ikkinchi hosilni esa sentabrda olamiz. Malina,

asosan, sovuq, namlik yuqori hududlarda o'sadi. Havo isib ketsa, hosilga ta'sir qiladi. Ikkinchi hosilida birinchi hosilga qaraganda kamroq meva beradi. Chunki bu mavsumda havo harorati pasayadi. Yiliga tomorqadan 3 tonnagacha hosil yig'ib olamiz. Bu yiliga 60 million so'm daromad degani.

# ALDAGAN HAM, ALDANGAN HAM NAFSIMIZ

Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Ijtimoiy tarmoqlarda g'araz maqsaddagi so'rovnomalar, tanlov, aksiya, o'yinlar, qoldirilgan ulkan merosni rasmiylashtirish, tez boyib ketish to'g'risidagi feyk xabarlar orqali fuqarolarning shaxsiga doir ma'lumotlarni firibgarlik yo'li bilan o'g'irlash holatlari kundan kunga ko'paymoqda. Shu sabab O'zbekiston Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi fuqarolarimizdan shaxsiga doir ma'lumotlarni davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan ijtimoiy tarmoqlar va internet tarmog'ida e'lon qilmaslikni tavsiya etmoqda.

sangiz, kartangizdagi pulni hech qachon o'g'irlay olishmaydi, hisobingizni ham hech kim nazorat qila olmaydi.

"Prezidentimiz har bir oilaga ma'lum miqdorda ko'mak berish to'g'risida qarorni imzoladi. Har bir oilaga falon so'm miqdorda pul berilmoqda. Qanday olishni o'rgataman, xolis yordam!". Shu kabi xabarlarga hamma duch kelgan yoki eshitgan. Bunday "xolis yordam"lar qurboni bo'lganlar ham talaygina.

Yana bir ommalashgan usul – "internet sarmoyador"lari. Siz ma'lum miqdorda sarmoya kiritish orqali pulingizni 3-4 baravarga ko'paytirib, foyda olishingiz mumkin. Ular ijtimoiy tarmoqlar orqali tanishib, sizning ishonchingizga kiradi. Avval o'qigan, bilimli, dindor bo'lib ko'rinadi, ammo asl yuzi ko'ringanda esa kech bo'ladi.

– Telegram orqali bir noma'lum shaxs bilan tanishib qoldim, u o'zini birja brokери deb tanishtirdi, – deydi Kamol Qodirov. – U menga birjaga sarmoya kiritish va buning evaziga katta foyda olish taklifini bildirdi. Uning bu gaplariga ishonib, 20 million so'mni sarmoya sifatida u aytgan hisob raqamga o'tkazib berdim. Keyin uni topa olmadim. Aldanganimni bilib, IIB bo'limiga murojaat

qildim. Ularning yordamida firibgar topilib, pulimni qaytarib oldim.

Arzon va tez mashina sotib olish, past narxlarda uyali aloqa vositalarini qo'lga kiritish, uydan chiqmasdan xarid qilish holatlari sabab ham firib ildiz o'tmoqda.

Shaxsiy misol. Bir kuni telegramimga ma'lum miqdorda pul yutib olganim haqida xabar keldi. Pulni olish uchun ko'rsatilgan saytga kirib, plastik karta raqamini kiritishim talab etildi. Albatta, bunday bo'lmasligi aniq edi. Qitmirligim tutdimi yoki ularning qanday yo'l tutishini bilishga qiziqdimmi, xullas, so'ralgan ishni qildim.

Saytga kirib puli yo'q kartamni ular bergan manzilga joylashtirdim. Bir necha soniyada xabar keldi: "Siz yutuqni olishingiz uchun hisobingizda 100 ming so'mdan ko'proq mablag' bo'lishi kerak".

Pulga haddan ziyod "mehr" qo'yish oqibatida yuqoridagi kabi aldanib qolish holatlari ko'p uchramoqda. Afsuski, oson va tez boyib ketish xayolida yashaydigan, bu orzulari yo'lida har qanday yolg'onga uchib, bor-budini berib yuboradigan odamlar ham bor. Sizga biror nima tavsiya etilmoqdam, avval yaxshilab o'ylang, o'rganing, sizga hech qanday meros qolmasligini mulohaza qiling. Zero, tekin pishloq faqat qopqonda bo'ladi.



UNING BU GAPLARIGA ISHONIB,  
20 MILLION SO'MNI SARMOYA  
SIFATIDA U AYTGAN HISOB  
RAQAMGA O'TKAZIB BERDIM.  
KEYIN UNI TOPA  
OLMADIM.

**D**arhaqiqat, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoq firibgarligi urchigan.

"Men bank xodimiman, sizning plastik kartangizdagi pullaringizni o'g'irlashmoqchi. Hozir sizga kod boradi, shu kodni bizga yuboring, biz kartangizga himoya o'rnatib beramiz". Bir qancha insonlarni chuv tushirgan bu firibni ijtimoiy tarmoq "ustasi faranglar"i o'ylab topgan. Agar siz plastik kartangiz pin kodini oshkor etma-

Imkoniyating cheksiz

## "ONAM YIG'LAMASIN"

Aziza MAXSUDOVA,  
Yakkasaroy tumanidagi  
"Shohjahon" mahallasi  
yoshlar yetakchisi



Jismoniy nuqsonlar ijod namunalari boshqalar bilan bo'lishishga to'sqinlik qilolmaydi deb hisoblaydigan do'stimiz Rasulbek Rajapov she'rlar mashq qiladi. U 2003-yili Xorazm viloyatida tug'ilgan, II guruh nogironi. Onasi va ukasi bilan yashaydi.

Rasulbek 2021-yili Mirobod tumanidagi 294-maktabni tamomlab, Sergeli tumanidagi Toshkent politexnika texnikumiga o'qishga kirdi. Uning yagona orzusi validasi uchun yozgan ijod namunalari to'plab, "Onam yig'lamasin" nomli she'riy kitob chiqarib, onasiga sovg'a qilish bo'lgan.

Yosh ijodkorimiz bilan xatlov jarayonida tanishganimda vaqtincha ijarada yashayotgani, sog'lig'ida muammosi borligi, ijod qilishi, yozgan she'rlarini kitob holida chiqarib onajonisiga sovg'a qilish orzusi ekanini, ammo bunga moddiy imkoniyati yo'qligini bildirdi. Orzulari haqida to'lib-toshib ko'zida yosh bilan gapirganini ko'rib, Rasulbekning orzulari ushlatishi uchun ozgina bo'lsa ham o'z hissamini qo'shishni niyat qilib qo'ydim. Uning she'rlarini olib, ilk – "Onam yig'lamasin" nomli she'rlar to'plamini nashr qilib berdik.



Kitobni topshirish jarayonidagi yosh ijodkorimizning xursandchiligi bir umr yodimdan chiqmasa kerak. Ko'rsatilgan bunday yordamdan

uning hayotga, ijodga qiziqishi ortib, qalamini yanada sayqallantirishini, ijod namunalari ko'paytirishini aytib, minnatdorchiilik bildirdi.

# “YUKSALISH”DA YUKSALGAN IXTIROCHI

Bu yil o'rtta ta'lim maktabni tamomlagan Sunnatullo bolaligidan texnikaga qiziqqani bois uyidagi nosoz jihozlarni tuzatishga harakat qilardi, biroq tuzatish o'rniga ko'proq buzib qo'yardi. Sekin-sekin "buzish" kamayib, "tuzatish" ko'payib bordi. Shu jarayonda yangiliklar yaratish ishtiyoqi paydo bo'la boshladi.


**D**astlab u YouTube orqali "Yuksalish" liderlar akademiyasi direktori Muhammadali Eshonqulovning darslarini tomosha qildi. Formular yordamida harakat qilishni o'rgandi. So'ng Toshkent shahridagi "Yuksalish" liderlar akademiyasida o'qishni niyat qildi. Biroq uning baxtiga Jizzax shahrida ham akademiya filiali ochildi.

## MAQSAD, HARAKAT, E'TIBOR VA KO'MAK

Ilon Mask, Stiv Jobslarning ixtirolaridan ham zo'r ishlarni qilish va dunyodagi rivojlangan davlatlardan biriga aylanishimiz mumkin. Buning uchun maqsad, harakat, e'tibor va ko'mak zarur. Sunnatulloda maqsad hamda harakat bor edi va tez orada qo'llab-quvvatlovchi ham topildi. Uning rejaları va g'oyalari bilan tanishgan Muhammadali Eshonqulov Sunnatulloga poytaxtda yashash, ishlash va o'rganish uchun sharoit yaratib berdi. Shu sabab u barcha o'ylab yurgan g'oyalarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.

– Bolaligimda turli texnikalarni buzish va har bir detalni o'rganish qiziq edi. – **deydi Sunnatullo Mahamatqulov.** – Bu ishlarimni ko'rgan dadajonimning xursand bo'lishi men uchun katta motivatsiya bo'lgan.

Keyinchalik "Yuksalish" liderlar akademiyasida qat'iylilik va biznes sirlarini o'rgandim. Fikrlarimni qog'ozga tushirib, menga va jamiyatga foyda keltirmaydigan g'oyalarni rejadan chiqarib, qo'limdan keladiganlarini amalga oshira boshladim. Akademiya 3 oy o'qib chiqqanimdan so'ng poytaxtga Muhammadali Eshonqulovning yoniga keldim. Ustoz bilan birga barcha loyihalarni ishlab chiqarib boshladik.



## 18 YOSHDA YARATILGAN IXTIROLAR

Sunnatulloning ilk ixtirolaridan biri – "Smart led". Unda maxsus pult orqali chiroqni yoqib o'chirish mumkin. Bundan tashqari, "Nesla" ya'ni "Aqlli office", "Aqlli uy", "Aqlli avtomobil" loyihalarini hamda robotlarni yaratdi.

O'rgangan bilimlari asosida "Smart house" loyihagini tatbiq qilgan. Bunda smartfon orqali uyningizdagi elektr jihozlarning holatini aniqlash, ularni yoqish yoki o'chirish mumkin. Masalan, dastur darvozalar hamda eshiklarni ochish-yopish, chiroqlar, televizor, rozetkalar, kofe mashinalari va shunga o'xshash elektr qurilmalarini telefon orqali boshqarish imkoniyatini beradi.

Sunnatullo jamoasi bilan aqlli robot ham yasagan. Bu robot gapiradi, harakatlanadi, o'zbek tiliga tushundiradi va unga javob qaytaradi. Robot o'quv markazlari va korxonalar uchun mo'ljallangan bo'lib, qabulxonada turib ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

## “AQLLI AVTOMOBIL” LOYIHASI

Qahramonimiz "Aqlli avtomobil" loyihagini ham yaratdi. Bu loyiha "Tesla" kabi avtomobillar eshiklarini karta orqali qulflash, ochish, telefon orqali avtomobilni istalgan masofadan boshqarish, avtomobil yukxonalarini sensor yordamida oyoq yurgizish orqali ochish kabi imkoniyatlarni beradi.

Mashinani o't oldirish, o'chirish, qulflash, signal chalish, o'zini yoki yukxonani ochish kabi funksiyalari mavjud bo'lgan "FAZO LINE" nomli telefon orqali boshqarish dasturi eng mukammal va muvaffaqiyatli ishlardan biri. Bu dastur yordamida O'zbekistonning istalgan nuqtasidan mashinani masofaviy boshqarish mumkin. Yosh ixtirochi bu sistemani ishlab chiqish uchun **6 oy mobaynida izlanish va sinovlar olib borgan.** Hozir dastur o'z foydalanuvchilariga ega, mijozlar dasturni yaratuvchilar yordamida yuklab olishmoqda. Biroq dasturning bundan-da yaxshi dizayndagi va yangi funksiyalar, ya'ni lokatsiya, avtomobilni GPS orqali kuzatish tizimi ham mavjud bo'lgan



Shahribonu RAHMATOVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



## ORZULAR RO'YOBI

Yozgi ta'til tugay deb qoldi. O'quvchining bo'sh vaqti – targ'ibotchining ish vaqti tamoyili asosida maktabimizdagi iqtidorli, qobiliyatli yoshlar bilan muntazam shug'ullanib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etyapmiz.

Ayniqsa, yozning issiq kunlarida ob-hovodan-da qaynoq haroratli she'riyat kechalari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'quvchilarda katta taassurot qoldiryapti. Ularning ko'zidagi quvonch, ertangi kunga ishonch, shiddat va g'ayratni ko'rib, biz, targ'ibotchilarning ham yana-da ishlagimiz, yangi loyihalar bilan o'quvchilarni rag'batlantirgimiz keladi.

Maktab davrlarimda rasm chizardim, she'r yozardim, lekin bu iste'dodni qanday rivojlantirishni bilmasdim. O'shanda to'g'ri yo'l ko'rsatib, ijodga yo'naltiradigan odam ham topilmagan. Qobiliyatlarim o'z holicha paydo bo'lib, yillar davomida vaqtning qum barxanlari ichida yo'qlikka yuz tutgan. Bugun esa yurtimizda har bir bola o'z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu ishda maktablardagi targ'ibotchilar muhim rol o'ynaydi.

Kasbimdan faxrlanaman, o'quvchilarim biror natijaga erisha, ulardan ham men ko'proq quvonaman. Ularda o'zim erisha olmagan, ko'nglimning tub-tublarida armon bo'lib yotgan orzularimning ro'yobini ko'raman...

**Maftuna NARZULLAYEVA,**

Xatirchi tumanidagi 27-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

“**ILON MASK, STIV JOBSLARNING IXTIROLARIDAN HAM ZO'R ISHLARNI QILISH VA DUNYODAGI RIVOJLANGAN DAVLATLARDAN BIRIGA AYLANISHIMIZ MUMKIN.**”

keyingi versiyasini Play market ilovasi orqali olishingiz ham mumkin.

Sunnatullo yaratgan texnikalarni ko'rib, yurtimizda ham shunday yoshlar boligidan faxrlanasan kishi. Uning eng katta maqsadi kelajakda o'z ixtirolarini yanada rivojlantirib, mahsulotlarini chet elga eksport qilish, shu orqali davlat iqtisodiyotiga foyda keltirish va yurtimizni TOP davlatlar safiga olib kirishdir.

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA:

foydali solig'i stavkasi  
15 foizdan 7,5 foizga;

aylanma soliq stavkasi Nukus shahrida 4 foizdan 2 foizga, tumanlarda 2 foizdan 1 foizga, o'lis hududlarda esa 1 foizdan 0,5 foizga;

mol-mulk va yer solig'i stavkalari 2 baravarga kamaytiriladi.

Bloggerlar fikri

## “JADIDLAR” HAQIDA



“Jadidlar” to'plamini olib kelib berishganiga ancha bo'lgandi, endi vaqtim bo'lib, tanishib chiqdim. Kechikib ketgan bo'lsam ham, bu to'plam atrofida ko'tarilgan kichik xayp biroz tingan bo'lsa ham, esga olib o'tay.

To'plam sakkizta kitobchadan iborat. Har biri bir mashhur jadidning hayoti va ijodini qisqacha hikoya qilib beradi. Mundarija shaxslarning tarjimai holi, faoliyati, hikmatli so'zlari va e'tirof etilishidan iborat.

Kitob bu shaxslar haqida ancha keng ma'lumot beradi. Nazarimda, ijodi haqida yetarli tasavvur berilmagandek. Lekin bu chuqur tadqiqot emasligini unutmaylik (garchi muharrir Bahodir Karimovday zabardast olim bo'lsa ham).



To'plamning maqsadi bir guruh jadidlar haqida umumiy va atroflicha ma'lumot berishdir.

Oxirgi paytlar bir narsaga ko'p guvoh bo'lyapman: men (o'zimcha) xohlaydigan chuqur, batafsil ma'lumotni, kontentni iste'mol qiladigan auditoriya uncha katta emas. Buning ustiga, mavzudan umuman bexabar odamlar ham juda ko'p, ularga shu qisqa ma'lumot birlamchi taassurot hosil qilishga yetadi. Jadidlar, jadidchilik trenddagi, ko'pchilikni qiziqtiradigan mavzu emasligini inobatga olsak, hozir keng ommaga, ayniqsa, yoshlarga bu haqda birlamchi ma'lumotni yetkaza olsak ham, katta yutuq bo'ladi.


Xullas, ushbu to'plamning chop etilishini jadidchilikka qiziqishni uyg'otishga qaratilgan ilk qadam o'laroq yaxshi tashabbus deb baholayman. Ammo kelajakda bu ish davom ettirilishini xohlayman: jadidlarning kattakon kitoblari ham chop etilsin, har birining alohida to'plami bo'lsin.

Hozircha jadidlarning juda katta qismi biz uchun kitobdagi bir surat bo'lib qolyapti, aksariyatining qarashlari, shaxsiy kechinmalari, o'ziga xos jihatlari bilmaymiz. Ularning merosi bilan yaqindan tanishsak, mana shu tasavvur hosil bo'ladi.

Yana bir gap. Jadidchilik aslida biz o'ylaganimizdan ko'ra kengroq harakat bo'lgan. Hali nomi eslanmagan, merosi o'rganilmagan qanchadan-qancha ziyoli turibdi. Ularga ham e'tibor qarataylik, tarjimai holini, merosini o'rganishni boshlaylik. Jadidchilik o'zbek tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir, uning ahamiyatini tushunish uchun avvalo uni yaxshilab o'rganish kerak.

Eldor ASANOV  
@AsanovEldor

# KITOB – BILIM, KUCH VA G'OYA



Odamlar ilm darajasi va sharoitiga qarab turli miqdorda kitob o'qiydi. Lekin muvaffaqiyatli insonlarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasi vaqtining muayyan qismini mutolaaga bag'ishlaydi.

## ULAR KO'P KITOB O'QIYDI

Bill Geys, Ilon Mask va shu kabi milliarderlarning ko'p kitob o'qishi haqida eshitgansiz. Chunki muvaffaqiyatli odamlar kitob yuksalishning kaliti, bilim esa kuch va g'oy ekanini anglab yetgan. Ularning fikricha, qancha ko'p bilsangiz, tushunchangiz keng bo'lsa, har qanday hayotiy sharoitga oson moslashasiz.

## QANDAY KITOBLARNI O'QIYDI?

Muvaffaqiyatli odamlar kitob tanlashda e'tiborli bo'lishadi. Ular uchun vaqt o'ta qimmatli, shu sabab ular foydasiz kitoblar mutolaasiga behuda vaqt sarflashni xohlamaydi.

Ular o'z-o'zini rivojlantiruvchi (“Self-help”) kitoblarni o'qishga moyil bo'lishiga ishonsak-da, bunday kitoblar ularning ro'yxatida kam uchraydi. Chunki ular o'z sohasi bo'yicha malakasini oshirish yoki shunchaki fikrlash tarzini o'zgartirish orqali o'z ustida ishlashni afzal ko'radi.

## BIZNES HAQIDA

Muayyan tor soha mutaxassisligini chuqur egallash muvaffaqiyatning asosi bo'lganidek, shunchaki yaxshi biznesmen bo'lish – nima-ga sarmoya kiritishni bilish, boshqalar ko'rolmagan natijani his etish va biznes yurita olish ham muvaffaqiyatli insonning muhim fazilati hisoblanadi. Biznes haqida minglab kitoblar mavjud va aksariyat muvaffaqiyatli biznesmenlar ularning katta qismini o'qigan.

## LIDERLIK HAQIDA

Yetakchilik haqidagi kitoblar o'quvchilarga qimmatli saboqlar beradi. O'z fikrini yetkazish, odamlarni boshqarish va ruhlantirish muvaffaqiyatli insonning muhim fazilatidir. Rahbar va yetakchi o'rtasida juda katta farq bor, sababi lider yetakchilik haqida o'nlab kitoblarni o'qigan bo'ladi.

## BADIIY ADABIYOT

Badiiy adabiyot aqlni charxlaydi, hissiyot va tasavvurni rivojlantiradi, miya faoliyatini yaxshilaydi. Neyrobiologlar badiiy adabiyot muto-

laasi paytida miyaning real voqealarni boshdan kechirayotganda faollashadigan ba'zi qismlari faoliyati yaxshilanishini aniqladi. Ya'ni siz o'qigan har bir badiiy adabiyot miyada qayta ishlanadi.

## QANCHA O'QIYDI?

Bill Geys. O'zining e'tirofiga ko'ra, yiliga 50 ga yaqin – har hafta qariyb 1 tadan kitob o'qiydi. Bill Geys juda band odam bo'lgani sababli o'qishga vaqt topolmagan kunlarini ta'tilda o'qish orqali qoplashga harakat qiladi, chunki u kuniga 3 soat kitob o'qiydi.

Ilon Mask. Kuniga ikkita kitob o'qigan. Tesla kompaniyasining bosh direktori bo'lishdan oldin Ilon har kuni 10 soatini mutolaaga ajratgan. Hozir ham band bo'lishiga qaramay, kitob o'qish uchun kuniga 4-6 soat vaqt topadi.

Uorren Baffet. Amerikalik investor va biznesmen so'nggi yilda har kuni 500-600 sahifa kitob o'qish bilan shug'ullangan.


## MASHHURLARNING SEVIMLI KITOBLARI

Dunyodagi eng muvaffaqiyatli odamlar yillar davomida tavsiya qilgan va o'zbekchaga ham o'g'irilgan kitoblar.

1. “Nol”dan “bir”gacha. Startaplar haqida izohlar yoki kelajakni qanday qurish mumkin”, Piter Til, Bleyk Masters.
2. “Do'st orttirish va odamlarga ta'sir o'tkazish”, Deyl Karnegi.
3. “Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi”, Stiven Kovi.
4. “O'yla va boy bo'l”, Napoleon Xill.
5. “Stiv Jobs”, Uolter Ayzekson.
6. “Sapiens insoniyatning qisqacha tarixi”, Yual Noa Xarari.
7. “Rework. Prinsiplarsiz biznes”, Jeyson Frayd, Devid Xaynemayer Xensson.

Bu kitoblar yoshlar orasida ommalashgan. Deyarli barcha kitob do'konlaridan topasiz. Ushbu nodir kitoblardan olgan bilimingiz orqali siz ham muvaffaqiyatga erishsangiz ajab emas.

Shahribonu RAHMATOVA tayyorladi.



Loyiha muallifi **Ziyoda RAHIMBOYEVA**

YANGI LOYIHA

# “UNIVERSITET”

**YOSHLAR BILAN HAMNAFAS  
GAZETAMIZDA SIZ UCHUN  
FOYDALI VA, ALBatta,  
QIZIQARLI BILIMLARNI  
ULASHUVCHI YANA BIR YANGI  
LOYIHANI E'OLON QILAMIZ!  
TANISHISHGA TAYYORMISIZ?**

**L**oyihamizning har sonida yangiliklarga boy bo'lgan yoki siz tanish, ammo u qadar ko'p ma'lumotga ega bo'lmagan har qanday mavzu haqida batafsil, ishonchli va qiziqarli ma'lumotlar taqdim etib boramiz. Bu ma'lumotlar chegaralanmagan doirada – texnika vositasi, tibbiyot, san'at turi, mashina rusumi yoki me'morchilik obidasi haqida bo'lishi ham mumkin. Loyiha doirasida sizni yangi bilimlar, qiziqarli faktlar, ishonchli manbalar kutmoqda.

Demak, biz boshladik! Loyihamizning ilk mavzusi kimdir uchun orzu bo'lgan, har qanday davrda ham ilm yo'lini tanlaganlar uchun eshigi ochiq dargoh – universitetlar haqida.

## OLMONCHA SO'Z, LOTINCHA MA'NO

Nemis tilidagi "Universitat" so'zidan olingan, ma'nosi esa lotincha "Universitas magistrorum et scholarium" ya'ni "O'qituvchilar va olimlar jamoati" iborasidan kelib chiqqan bu so'z 11 asrlik tarixga ega! O'zbekchada oliy o'quv yurti, oliy ta'lim muassasasi kabi muqobillariga ega. Tilimizdan chuqur joy egallagan.



“  
**ITALIYA, ISPANIYA, FRANSIYA SINGARI  
G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA  
DUNYODAGI ILK UNIVERSITETLAR  
TASHKIL TOPGAN.**

## UNIVERSITET VA INSTITUT: QANDAY FARQ BOR?

Universitetning vazifasi ta'limning bir necha yo'nalishida oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi bosqichda ta'lim berib, turli sohalardagi mutaxassislar malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi, fanning turli yo'nalishlarida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshiradi, taalluqli ilm sohasi bo'yicha tayanch ilmiy-metodik markaz hisoblanadi.

Institut esa ta'lim va fanning muayyan sohasida oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ayrim dasturlarini amalga oshirib, ma'lum bir soha bo'yicha muayyan hududdagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

## ILK BOR...

Italiya, Ispaniya, Fransiya singari G'arbiy Yevropa mamlakatlarida dunyodagi ilk universitetlar tashkil topgan. O'sha davrda ilm berishning eng oliy darajasi hisoblangan bu dargohlarning eng birinchilari XI asrda Italiyaning Bolonya shahrida, XII asr oxirlarida Salernoda; 1215-yili Fransiyaning Parij, 1289-yilda Monpelye; 1209-yili Buyuk Britaniyaning Kembrij, 1096-yil Oksford shaharlarida; 1218-yil Ispaniyaning Salamanka; Portugaliyaning Lissabon shahrida esa 1290-yil paydo bo'ldi.

Turkistonda birinchi oliy ilm dargohi, ya'ni madrasayi oliya X asrdayoq yuzaga kelgan bo'lsa-da, zamonaviy ko'rinishdagi dastlabki universitet 1918-yil 21-aprelda Toshkentda "Turkiston xalq universiteti" nomi bilan ochilgan. Bu dargoh o'sha davrning rus va yevropalik aholisi uchun mo'ljallangan edi. Oradan 20 kun o'tib, o'zbek jadalari tashabbusi bilan 1918-yil 12-mayda **Munavvarqori Abdurashidxonov** rahbarligida "Turkiston musulmon xalq dorilfununi", hozirgi **O'zbekiston Milliy universiteti** tashkil etildi.

## BUGUN...

Mamlakatimizda 160 ga yaqin oliy o'quv yurti mavjud, shundan qariyb 30 tasi universitet.

Dunyoda necha asrlik tarixga va o'ziga xos obro'ga ega universitetlar minglab topiladi. Biroq har yili yangilanib turadigan "Eng kuchli universitetlar 100 taligi" ro'yxatiga kiradigan dargohlarda o'qish har qanday yoshning orzusi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Joriy yilning avgust oyida yangilangan ro'yxatda kuchli 3 talikni AQShning Massachusets texnologiya instituti, Stenford va Garvard universitetlari egalladi. "Yuzlik" ro'yxatni Xitoyning Fan va texnologiya universiteti (USCT) yakunladi.

**P.S.: Navbatdagi sonlarda qaysi mavzudagi qiziqarli ma'lumotlarni bilishni istaysiz? Fikr-mulohaza, takliflaringizni @YO\_tahririyati\_bot manziliga yozishingiz mumkin.**

**YOSHLAR  
OVOZI**

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:

**Sardor  
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 17-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100383, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-18, (7) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taqab. Korxonalar manzili: Buyuk Turok ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-855, Adadi – 10527. Boshlangan taqab vaqt – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6